

MASHQLAR – NUTQIY KOMPETENSIYANI MUSTAHKAMLOVCHI TA'LIMIY VOSITA

O.B. Qurbonova

M.U. Sotvoldiyeva

¹ Toshkent davlat pedagogika universiteti
Umumiy tilshunoslik kafedrası v. b. dotsenti (PhD)

² Toshkent davlat pedagogika universiteti
Tillar fakulteti 1-kurs talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7582753>

Annotatsiya. Mazkur maqolada ona tili o'qitishda mashqning funksional jihati, uning nutqiy kompetensiya elementlarini rivojlantirishdagi o'rni va og'zaki va yozma savodxonlikni o'stirish, ijodiy va kreativ fikrlash hamda o'quvchilarning tafakkur qilish qobiliyatini takomillashtirishda mashq muhim ta'limiy vosita bo'lib, shu xususda tilshunos, metodist olimlar hamda psixologlarning ilmiy qarashlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: mashq, og'zaki va yozma savodxonlik, nutqiy ko'nikma, nutqiy kompetensiya, ta'limiy o'quv topshiriqlari, ilg'or texnologiyalar, kreativ yondashuv, ijodiy tafakkur, tasviriy ko'rgazmalar, mashqda berilgan matn ustida ishlash.

Bugungi kunda respublikamizda ta'lim sifati va samaradorligini oshirish, yosh avlodni har tomonlama yetuk shaxs sifatida tarbiyalash kabi mas'uliyatli vazifalar belgilangan. Bu jarayon ona tili o'qituvchilarning har bir darsni ilg'or zamonaviy metodlar, nutqni rivojlantirishga oid o'quv topshiriqlari vositasida nutqiy kompetensiyasini takomillashtirishga qaratilgan pedagogik texnologiyalardan foydalanish samara beradi. Shu bois, dars jarayonida birinchi galdagi vazifalardan biri ona tili darsliklaridagi mashqlarni o'quvchilarni ravon nutqi rivojlanishiga, orfografik me'yorga asoslanib mazmunli ifodalashiga xizmat qiluvchi nutqiy va grammatik, ular uchun qiziqarli bo'lishi lozim. Avvalo, mashq so'zining izohlanishiga, leksik- semantikasiga to'xtalmoqchimiz. Shuningdek, "O'zbek tilining izohli lug'ati" da "mashq" so'zi "o'rganish, malaka hosil qilish uchun qilinadigan tayyorgarlik mashg'uloti" ¹ degan ma'noni bildirishi ifodalangan. Mashq so'zining asosiy konseptual mohiyati o'rganishga, bilim, ko'nikma va malakalarning hosil bo'lishiga tayyorgarlikka asoslanadi. Ona tili darsliklaridagi mashqlar o'quvchilarni to'g'ri nutq tuzish, ravon so'zlash, bexato yozish, o'z fikrini og'zaki va yozma shaklda aniq, lo'nda, ta'sirchan ifodalashga yordam beradi. Mashqlarning funksional aspekti olimlar va tadqiqotchilar tomonidan turlicha talqin qilingan. Xususan, professor O'.Q. Tolipovning "Oliy

¹ Ўзбек тилининг изоҳли луғати, –Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Давлат илмий нашриёти, 2006. –2-жилд. – 671 б.

pedagogik ta'lim tizimida umummehnat va kasbiy ko'nikma va malakalarini rivojlantirishning pedagogik texnologiyalari" mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasida "Mashqlar -mehnat ko'nikmalari va mahoratiga erishishning zaruriy sharti hisoblanib, faoliyatning muvaffaqiyatli amalga oshirilishini ta'minlaydi. Bunda bilim va malakalarning takomillashib borishi bilan birgalikda sharoitning sifat va tezlikka bo'lgan talabining ortib borishiga mos ravishda ulardan foydalanish darajasi ortib boradi"². Binobarin, mashqlarning shartini, avvalo, aqliy yondashib tushuna olish va ongli tafakkurni ishga solgan holda anglash hamda mustaqil ravishda tezlikda bajarish talab qilinadi. Shuningdek, bunda o'ylash, mulohaza qilish, muayyan olingan bilimlarni xotiraga keltirish, ijodiy va ilmiy fikrlash asosida bog'lanishli matn yaratish yoki mantiqiy xulosa va yechimga kelish samarali faoliyat sanaladi. Aytish joizki, mashqlar muayyan belgilangan talablar asosida tuzilishi darsdan ko'zlangan maqsadga erishishda muhim vositadir. Lekin, mashqlarni ko'proq bajartirish matnlar tarkibidagi so'zlarning imloviy yozilishi o'quvchi xotirasida muhrlanib qoladi. D. Bogoyanskiyning ta'kidlashicha, "Mashqlar -qoidalarni qo'llash orqali to'g'ri yozish namunasini faqat mustahkamlabgina qolmasdan, balki morfologik orfografiya uchun alohida ahamiyatga egadir. So'zlarni yozuvda ifodalashda mos qoidani tanlash va orfografiyaning grammatik tabiatini farqlash uchun zarur bo'lgan fikrlash operatsiyalari ham ongli qabul qilish ham mashqlarda o'rganiladi"³. Bu fikrga qo'shilgan holda aytish mumkinki, o'quvchilar mashqni bajarishda so'zlarni o'qiydi, ularni ko'chirib yozadi, fikrlash jarayonida qayta og'zaki va yozma nutqida qo'llaydi, o'zidagi qobiliyatlar amaliy tafakkurda o'z aksini topadi. Boisi o'quvchilar o'ziga lug'aviy semantik ma'nosi noaniq so'zlar, atamalar ustida ishlash ko'nikmasi rivojlanadi. Yuqorida bildirilgan fikr mulohazalardan kelib chiqib aytish mumkinki ona tili darsliklaridagi mashq talablari kognitiv yondashuvini va nutqiy kompetensiyani rivojlantirishga xizmat qiladigan aniq va samara beradigan natijani o'zida mujassam qilishi lozim. Metodist olimlar U.Fayziyeva, G.Ziyodullayeva Зиёдуллаева tomonidan tuzilgan "Ona tili"⁴ deb nomlangan o'qituvchilar uchun metodik qo'llanmada mashqlarga quyidagi talablar qo'yilgan:

1. Mashqlar qat'iy bir tizimga xos qoidalar asosida o'tkazilishi kerak.

² Толипов Ў.Қ. Олий педагогик таълим тизимида умуммеҳнат ва касбий кўникма ва малакаларни ривожлантиришнинг педагогик технологиялари. Пед. фан.док. дисс. ... –Т.: 2004. –194 б.

³ Богоянленский Д.Н. Психологические принципы обучения орфография// Русский язык в школе.-1976.С.14.

⁴ Fayziyeva U., Ziyodullayeva G. Ona tili. (O'qituvchilari uchun metodik qo'llanma) 7-9- sinflar uchun. Tafakkur bo'stoni. T-2013

2.O'quvchilarning yozma va og'zaki fikrlarini to'g'ri ifodalash malakasini hosil qilishi lozim.

3.Grammatik mashqlar o'quvchilarning o'z fikrlarini qisqa, ixcham ifodalashga o'rgatishi kerak.

4.Mashqlar o'quvchilarning mantiqiy tafakkurlarini o'stirishga yordam berishi kerak.

5.Mashqlar orqali ifodali o'qish, chiroyli yozish malakalarining takomillashtirilishiga erishish lozim.

6.Mashqlar o'zlashtirilgan grammatik bilimlarni o'z nutqida mustaqil ravishda va ijodiy qo'llash malakasini hosil qilishga xizmat qilishi kerak.

7.O'quvchilarda topqirlik, hozirjavoblik, zukkolik, notiqlik fazilatlarini tarbiyalashda mashqlar tayanch omil bo'lishi kerak. Yuqoridagi talablar bilan tashkil qilingan mashqlar izlanuvchanlikka, tirishqoqlikka undaydi.O'qituvchi tomonidan qo'yilgan talab o'quvchidagi bilim, ko'nikma va malakalarni hosil qilishi uchun tayanch funksiyani bajaradi, ravon nutq vositasida muloqot qilishni o'rgatadi.Ravon nutq– bu kishilarning muloqotini va o'zaro bir-birlarini tushunishlarini ta'minlovchi mazmunan keng yoyilgan fikrdir. Ravon nutqni fikrlar dunyosidan ajratib bo'lmaydi: ravon nutq bu fikrlar ravonligidir, unda bolaning mantiqiy fikrlash, o'zi qabul qilayotganlarini mulohaza qilish va ularni to'g'ri ifodalash qobiliyati aks etadi⁵. To'g'ri mulohaza qilish, aniq, hayotiy, mantiqqa asoslangan xulosa va yechimga kelish, subyektiv fikrlarini kommunikativ muhitda ravon, izchillikda ifoda qilishni belgilaydi.

Xullas, o'quvchining o'zbek tilining adabiy til me'yorlariga amal qilib ifodali o'qish, so'zlash va yozish madaniyatli ongga va keng dunyoqarashga ega ekanligidan dalolat beradi. Bu esa o'z o'rnida ular tomonidan bildirilgan fikrlarning aniqligini, mantiqiylikni, mazmundorligini aks ettiradi. Ona tili darslarida nutqiy kompetentsiyalarni rivojlantirish ustida ishlanar ekan, nutqiy ko'nikma va malakalarni takomillashtirilishi aksariyat hollarda maxsus mashqlar tuzishni taqozo qiladi.

References:

1.Babayeva D.R. Nutq o'stirish nazariyasi va metodikasi (Darslik). – T.: “Barkamol fayz media”, 2018.

⁵ Babayeva D.R. Nutq o'stirish nazariyasi va metodikasi (Darslik). – T.: Barkamol fayz media, 2018. – 109 b.

- 2.Богоянленский Д.Н.Психологические принципы обучения орфография// Русский язык в школе.-1976.
- 3.Толипов Ў.Қ. Олий педагогик таълим тизимида умуммеҳнат ва касбий кўникма ва малакаларни ривожлантиришнинг педагогик технологиялари. Пед. фан.док. дисс. ... –Т.: 2004.
- 4.Fayziyeva U.,Ziyodullayeva G. Ona tili.(O'qituvchilari uchun metodik qo'llanma) 7-9- sinflar uchun.Tafakkur bo 'stoni.T-2013
- 5.Ўзбек тилининг изоҳли луғати, –Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Давлат илмий нашриёти, 2006. –2- жилд.